

**Xoliqova Dilobar**

Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o‘qituvchisi (PhD)

**Mamasidiqova Mayramxon Abdullayevna**

Farg‘ona viloyati Qo‘sh tepa tumani 39-maktab texnologiya fani o‘qituvchisi

---

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI  
RIVOJLANTIRISH- PEDAGOGIK MUAMMOLARI**

**Annotatsiya:** Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davr har birimizdan har bir jarayon, voqea, hodisalarga ijodiy yondashishi, mantiqiy fikrlash, o‘zining munosabatini bildirish hamda tez sur‘atlarda qaror qabul qilishni talab etmoqda. Bunday vaziyatda esa albatta har bir shaxs o‘zining mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatiga tayangan holda ish ko‘rishi tabiiy hol. Shunday ekan, aniq va teran fikrga ega bo‘lish, jamiyatdagi voqelikka kreativ yondashish kabi xususiyatlar inson kamolotining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘z:** rivojlanish, ijod, ijodkorlik, fikr, dono.

---

Mamlakatimizda o‘quvchi yoshlar va ularga davlat hamda jamiyatning munosabati to‘g‘risida Prezidentimiz tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”. Darhaqiqat, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davr har birimizdan har bir jarayon, voqea, hodisalarga ijodiy yondashishi, mantiqiy fikrlash, o‘zining munosabatini bildirish hamda tez sur‘atlarda qaror qabul qilishni talab etmoqda. Bunday vaziyatda esa albatta har bir shaxs o‘zining mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatiga tayangan holda ish ko‘rishi tabiiy hol. Shunday ekan, aniq va teran fikrga ega bo‘lish, jamiyatdagi voqelikka kreativ yondashish kabi xususiyatlar inson kamolotining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Bugungi kunda “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart!» degan hayotiy da‘vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan”, deb ta‘kidlab o‘tishi ham bejiz emas. Zero, Respublika ijtimoiy iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan yangi yutuqlarga erishishni ta‘minlovchi omildir. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning “Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davri – bu boshlang‘ich sinf davridir” degan fikrlarida farzandlarimizni kelajakka tayyorlash, ularga alohida e‘tibor qaratish, ilg‘or va zamonaviy ta‘lim-tarbiya berish usullarini tatbiq etish, pedagoglarning bilim darajasini yanada oshirish hamda shu kabi boshqa ko‘plab dolzarb masalalar bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmaganligini ta‘kidlab o‘tish lozim.

Shunga ko‘ra mustaqil fikrga, intellektual jihatdan rivojlangano‘z dunyoqarashiga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitish, ijodiy faoliyatga tayyorlash ularni ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish har doimgidek pedagogik dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, dunyo taraqqiyoti shiddati, unda kechayotgan jarayonlar barcha sohalar kabi ta‘lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsiyalarni tadbiq etishni taqozo etmoqda. Avvalo, bu o‘quv dasturlari, darsliklar, metodikalarni yanada takomillashtirish,

o‘qituvchi-pedagoglar tavsiyasini muntazam oshirib borish, jarayonga innovatsion va ilg‘or axborot hamda ta‘lim texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolarda ko‘rinmoqda.

Olimlarimizdan F.R.Yuzlikayev va M.Najmiddinovalarning “Chet tilini o‘qitishda talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish” metodik qo‘llanmasida I.P.Nikitinaning fikrini ketirib, “san‘at falsafasi”da to‘g‘ridan to‘g‘ri “kreativlik” tushunchasi qo‘llanilmaydi, biroq “inson muntazam ravishda o‘zining shaxsiy “chegarasi”dan chetga chiqishga harakat qiladi: o‘zining imkoniyatlari, hayoti va o‘z dunyosidan”.

N.V.Kuzminaning fikricha, ijodiy va mustaqil fikrlash o‘rtasidagi farqning muhimligi shundaki, ijodiy fikrlash mustaqil fikrlashdir, ammo har qanday faol fikrlash ham mustaqil fikrlash ham o‘z navbatida ijodiy fikrlash bo‘la olmaydi. O‘quvchining ijodiy fikrlashining muhim qismlaridan biri – bu intuitsiya (fahm)dir. Intuitsiya tushunchasi turli fanlarda qo‘llaniladi: falsafa, mantiq ilmi, matematika, psixologiya fanlari mazkur tushunchaga turlicha ma‘no kiritishmoqda.

Bugungi kunda yoshavlodga ta‘lim-tarbiya berishda o‘quvchilar ongiga milliy g‘oyaning asosiy yo‘nalishlarini singdirish badiiy ta‘lim vositalaridan, usullaridan samarali foydalanish, o‘quvchilarning ma‘naviy siyosiy dunyoqarashlarini shakllantirish bilan birga, ularda ijodiyqobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

B.M.Teplov qobiliyatlar–shaxsning alohida ruhiy xususiyati bo‘lib, qandaydir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga, inson tomonidan avval ishlab chiqilgan va biror natijaga olib kelmaydigan bilimlar, mahorat va ko‘nikmaga aloqador bo‘lgan xususiyatdir, deb yozadi.

S.L.Rubinshteyn[108]qobiliyatlarshaxsdagi umumlashgan ruhiy faoliyatlar tizimiga birlashtirilgan, qobiliyatlarning ko‘nikmalardan farqi harakatlar usullarini mustahkamlash natijasi emas, balki harakatlar orqali boshqariladigan faoliyatlarning ruhiy jarayonlaridir, deb hisoblaydi.

M.R. Kudayev esa qobiliyatlar haqida quyidagicha fikr yuritadi: qobiliyatlar deganda, aniq bir faoliyat turini yuqori darajada bajarishga xizmat qiladigan shaxs sifatlari va xususiyatlari tushuniladi .

So‘nggi yillarda mamlakatda ta‘lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy faoliyatga tayyorlash va yo‘naltirib o‘qitish, ta‘limning uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Oljayevna, O., & Shavkatovna, S. (2020). The Development of Logical Thinking of Primary School Students in Mathematics. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(2), 235-239.
2. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 326-329.
3. Shavkatovna, S. R. N. (2021). Methodical Support Of Development Of Creative Activity Of Primary School Students. *Conferencea*, 74-76.
4. Ra‘noxon, S. (2022). Boshlang'ich maktab o'quvchilarida matematikaga munosabat. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 203-207.
5. Shavkatovna, S. R. (2021). Methodological Support for The Development of Primary School Students' Creative Activities. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 121-123.

- 6.** Shavkatovna, S. R. (2021). Improvement of methodological pedagogical skills of developing creative activity of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 289-292.
- 7.** Шарофутдинова, Р., & Абдуллаева, С. (2022). Фикрлаш қобилиятини ривожлантиришда ментал арифметика. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 235-239.
- 8.** Махамдалиевна, Y. D., Òljayevna, Ò. F., Qizi, T. D. T., Shavkatovna, S. R. N., & Anvarovna, A. O. (2020). Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. *Solid State Technology*, 63(6), 14221-14225.
- 9.** Sharofutdinova, R. I., Asadullaev, A. N., & Tolibova, Z. X. (2021). The Factors and Basic Concepts Determining Community Health. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(5), 376-379.
- 10.** Iqboljon, S. (2022). Boshlang'ich Sinf o'quv Jarayonida Axborot Texnologiyalaridan Foydalanish. *Ijodkor o'qituvchi*, 2(20), 137-140.
- 11.** Iqboljon, S. (2022). Kompyuter yordamida darslarni tashkil etish. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 1(9), 246-249.
- 12.** Sharofutdinov, i. (2023). Development of acmeological competence of future educators in the conditions of informing education. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 424-429.
- 13.** Sharofutdinov, i. (2023). The actual status of the methodology of developing acmeological competence of future educators in the conditions of informing education. *Академические исследования в современной науке*, 2(12), 206-213.
- 14.** Sharofutdinov, I. (2023). Bo 'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish metodikasining amaliyotda qollash. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(7), 54-58.
- 15.** Sharofutdinov, I. (2023). Pedagogik-psixologik fanlarning bo 'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishdagi o 'rni. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(6), 17-24.
- 16.** Sharofutdinov, I. (2023). Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo 'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik tizimi. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(14), 13-19.
- 17.** Sharofutdinov, I. (2023). Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo 'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish modeli. *Наука и технология в современном мире*, 2(13), 77-84.
- 18.** Sharofutdinov, I. (2023). STRUCTURE AND COMPONENTS OF THE DEVELOPMENT OF ACMEOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS IN THE CONDITIONS OF EDUCATION INFORMATION. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 574-580.
- 19.** Sharofutdinov, I. (2023). FORMS OF SELF-DEVELOPMENT IN FUTURE PEDAGOGUES BASED ON THE ACMEOLOGICAL APPROACH IN THE PROCESS OF INFORMATIZATION OF EDUCATION. *Science and innovation*, 2(B3), 5-8.
- 20.** Usmonjon o'g'li, s. I. (2022). Ta'lim tizimida raqamli texnologiya. *Innovative developments and research in education*, 1(12), 120-128.
- 21.** Шарофутдинова, Р., & Абдуқодиров, Б. (2023). Технологик таълим жараёнида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ривожлантириш омиллари ва тамойиллари. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(19), 862-868.